

BUXORO SHAHRI ME'MORIY YODGORLIKHLARI TARIXIDAN
(MOXI XOSA MISOLIDA)

Bobojonova Feruza Xayatovna

Buxoro Davlat Universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedarasi dotsenti, t.f..n.

G'aniyeva Sarvinoz Qayyumzoda

Buxoro Davlat Universiteti "Tarix" yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14043787>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ming yillar davomida bashariyatning ma'naviy va moddiy tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ko'hna va boqiy Buxoroning chuqur tarixga ega me'moriy obidalardan biri bo'l mish Sitorayi Moxi Xossa inshooti xususida fikrlar bayon qilinib, uning qurilish tarixi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoroyi sharif, Moxi Xossa, Amir Olimxon, Qoryog'di Jumayev, usta Shirin Murodov, shaharsozlik san'ati

FROM THE HISTORY OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF THE CITY OF
BUKHARA (IN THE CASE OF MOKHI KHOSA)

Abstract. In this article, thoughts are expressed about the Moxi Khosa structure, one of the ancient and eternal Bukhara's architectural monuments with a deep history, which has made a great contribution to the development of the spiritual and material civilization of mankind for thousands of years, and the history of its construction is explained.

Key words: Bukhara, Mokhi Khossa, Amir Olimkhan, Koryogdi Jumayev, master Shirin Murodov, art of urban planning.

ИЗ ИСТОРИИ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ ГОРОДА БУХАРЫ
(НА ПРИМЕРЕ МОХИ ХОСЫ)

Аннотация. В данной статье высказаны мысли о строении Махи Хоса, которое является одним из архитектурных памятников древней и вечной Бухары, внесшим на протяжении тысячелетий огромный вклад в развитие духовной и материальной цивилизации человечества, и освещена история его строительства.

Ключевые слова: Бухара, Мокхи Хосса, Амир Олимхан, Корёгди Джумаев, мастер Ширин Муродов, искусство градостроительства.

KIRISH

Dunyoda muqaddas va mo'tabar shaharlar ko'p. Lekin ular orasida asrlar davomida tarix sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, buyuklik maqomini saqlagan holda, kelajak sari dadil intilib kelayotganlari kamdan-kam topiladi. Buxoroyi sharif-ko'hna tarix va madaniyat, milliy o'zlik, ilm-ma'rifat, din-u diyonat, ezgulik, obodlik va osoyishtalik, Vatanga muhabbat va sadoqat ramziga aylanib ulgurgan shahardir. Qariyb uch ming yillik tarixni o'zida mujassam etgan Sharif shahrimiz bilan faxrlansak arziydi.

Buxoro amirlarining Sitorayi Moxi Xossa yozgi qararorgohi XIX-XX asrlar Sharq nafis me'morchilik san'ati va xalq badiiy hunarmandchiligi mahoratini o'zida uyg'unlashtirgan ajoyib majmuadir. Markaziy Osiyoda biron bir me'moriy majmuada uni yaratgan ustalar naqshu namosi koshona ichidagi go'zal buyumlar jilosi bilan bunchalik darajada hamohang tushmagan. Shu sababdir, qanchadan qancha shoirlar uning madhini kuylab qalam tebratgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sitorayi Moxi Xossa saroyning qurilish tarixi haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Buxoro amiri Muzaffarxonning go'zallikda tengi yo'q, suyukli xotini bo'lib, uning ismi Sitorabonu ekan.

Afsuski, Sitorabonuning umri qisqa bo'libdi, u ming azob bilan Abdulahadxonni dunyoga keltirib, o'zi vafot qilibdi. Shundan keyin amir chuqur qayg'uga botib axiyri, suyukli rafiqasini nomini abadiylashtirish maqsadida otasi qurilishini boshlagan yozgi saroyga uning nomini qo'yishga qaror qiladi. Amirning maqsadi suyukli xotini sharafiga "Sitorayi Moxi Xossa", ya'ni ko'ngildagi yulduz va uning samodagi aksi bo'lган oy deb atalgan mahobatli bir saroy barpo qilib, uni yerdagi jannatga aylantirish edi¹. Shu va shunga o'xshash rivoyatlar ko'p uchraydi. Haqiqatdan ham bu rivoyat rost bo'lib saroyni Muzaffarxon suyukli xotini Sitorabonuga atab nomlagandir.

Ammo, buni tasdiqlovchi tarixiy dalillar hali topilgan emas.

Saroy uchun joy tanlashning ham o'zi bo'lмаган. Hukmdor barcha donishmandlarni huzuriga chaqirib, bo'lajak qasr uchun jaziramada yozda salqin, qahraton qishda esa issiq bir joyni tanlashni buyuribdi. Ular bunday joyni aniqlash uchun Buxoroyi Sharifning jahonning to'rt tomoniga qaratilgan to'rt darvozasida bittadan qo'yni so'yib osishni maslahat berishibdi.

Samarqand darvozasiga osilgan qo'yning go'shti hammadan keyin buzilgani uchun amir hazratlari qasrni shu darvozadan to'rt chaqirim tashqarida qurishga farmoyish etibdi.² Bular shunchaki bir rivoyat, tarixiy manbalarning guvoohlik berishicha Sitorayi Moxi Xossa saroyiga Nasrulloxon asos solgan. Biroq Nasrulloxon davrida qurilgan saroyning hech bir qismi saqlanib qolmagan.

Buxoroda hukmdorlar tomonidan barpo qilingan, go'zallikda bir-biridan o'tib ketadigan maskanlar bisyor. Bularga misol qilib mang'it hukmdorlari tomonidan Sherbudin va Karman qo'rg'onlarida barpo etilgan oromgohlarni, bundan ancha yillar ilgari hozirgi Chorbakr maqbarasi yaqinida bunyod etilgan Sumitan chorbog'ini, Sitorayi Moxi Xossa atrofidagi Bog'i Bozorcha, Chorbog'i gul, Ko'lbayi-gulkoron, Dilkusho, Chorbog'i Xossa, Bog'ishamol-Fayziobod, G'urban bog'lari va bir qancha inshootlarni oloshimiz mumkin. Afsuski ular hozirgi davrgacha saqlanib qolmagan. Butun Markaziy Osiyoda bizgacha nisbatan yaxshi holatda yetib kelgan hukmdorlar yozgi saroylarining yagona namunasi Sitorayi Moxi Xossa bo'lib, uning bunyod etilishi tarixi bir yarim asrdan ziyod davrni o'z ichiga qamrab olgan.

Bizgacha yetib kelgan rivoyatlarga ko'ra, Muzaffarxon bu saroy qurilishining mayda detallariga ham sinchkovlik bilan yondashib, hattoki qurilish ishlarida ham jonbozlik ko'rsatgan.

Biroq ming afsuslar bo'lsinkim, Muzaffarxon davrida qarorgohda barpo qilingan inshootlar saqlanib qolmagan. Ko'p yillardan buyon ta'mirtalab bo'lib turgan qo'shsinchli kata mehmonxona ham 1986-yilda qulab tushib, uning surati saqlanib qolgan, xolos.

Amirning eski saroyini Muzaffarxon davrida, XIX asr oxirida, usto Xoja Hafiz, usto Nasrullahboy, usto Ostonqul va boshqalar qurishgan. U ixchamgina binolar majmuasidan iborat bo'lib, boy Buxoro uyi turidagi sinchli turarjoylar orasida Yevropa me'morchiligi uslubida ishlangan markaziy bino sifatida ajralib turgan edi.³

¹ Жумаев К. Ситораи Моҳи Ҳосса. –Бухоро: Бухоро, 2010. –Б.41.

² Н. Наимов. Бухори Шариф.-Бухоро: Бухоро, 2005.-Б.45.

³ Бухоро шарқ, дурданаси.-Тошкент: Шарқ., 1997.-Б.172

Uning old tomoni simmetrik, qirrador shakllar, peshayvon bilan boyitilgan. Eski saroyda mahalliy amaldor va boylar, yangi saroyda chor amaldorlar qabul qilingan.

Abdulahadxon hukmronligi yillarida qurilib, davrimizgacha yetib kelgan saroy inshootlari o'ziga xos tuzilishga ega. Undagi to'g'ri to'rtburchak shaklidagi kata xona saroyning qoq markazi hisoblanadi. Katta xonaning ikki tomonida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan va bir xilda sayqal berilgan sakkiz burchakli bir juft kichik zal mavjud. Toshdan yo'nib yasalgan ramziy zinapoya bu ikki zal o'rtasida o'ziga xos supa hosil qilgan. Supaning ikki tomoni aylanma shaklda qurilib, pasti va yuqorisiga bezak berib qurilgan ustunlar kirish yo'llariga alohida husn-tarovat bag'ishlaydi.

Supaning g'arb tomoniga hukmdor taxti qo'yilgan. Unda o'tirgan Abdulahadxon nafaqat kata xona, balkim bir juft sakkiz burchakli zallarda o'tirgan mehmonlarni ham ko'rib turgan.

Muzaffarxon va Abdulahadxon barpo qilgan inshootlarda sharqona me'morchilik uslubining Buxoro va Isfaxon maktablari amali qisman ko'rindi, xolos.⁴ Bu bejiz emas. Ikkala hukmdor ham Buxoro me'morchiligi uchun yangilik bo'lган g'arb uslubini qo'llashga harakat qilishgan. Saroy qurilishida g'arb uslubini qo'llash maqsadida bir guruh ustalar Yalta va Peterburg shaharlariga borib kelishgan. Bundan tashqari rus muhandisi Sakovich qarorgoh qurilishiga rahbarlik qilish uchun Buxoroga taklif qilingan.

Afsuski, hozirgi vaqtga kelib, Muzaffarxon va Abdulahadxon davrida qarorgohda barpo qilingan binolar buzilgan, ko'pchiligiga jiddiy shikast yetkazilgan. Shu tufayli ularning tarixini topish mushkul. Ayni vaqtida yupqa ipak qog'ozga chizilgan Sitorayi Moxi Xossa saroyining tarixi Buxoro davlat badiiy me'morchilik muzey qo'riqxonasining qo'lyozmalar fonida saqlanadi.

Undagi yozuvlar arab yozuvida bo'lib, fors tilida bitilgan. Tarixdagi ko'plab shiyponlar, hovuzchalar, ko'shklar, pavilonlar va aylanasimon filxona binolari bizgacha saqlanmagan.

Afsuski, tarixning muallifi noma'lum. U o'z ismi-sharifini yozib qoldirmagan.

Qarorgohning hozirgi shaklidagi asosiy binolari mang'itlar sulolasining so'nggi vakili Mir Sayyid Olimxon hukmronligi davrida barpo etilgan. Shuning uchun qarorgoh tuzilishi eski va yangi saroylarga bo'linib, eski deganda, Olimxon hukmronligi davridan ilgari bunyod etilgan inshootlar nazarda tutiladi. Uning davrida Sitorayi Moxi Xossaga 300 nafar dehqon va soldatlar haydab kelingan, ular ikki yil mobaynida botqoqlikni quritib, hovuz qazib bog' barpo qildilar. 1911-1914-yillarda shu bog'da Buxoro ustalari muhandis Margulis loyihasi bo'yicha uchta bino: qabullar saroyi, shaxsiy bino, haram qurishgan. Bu qurilishda usto Abdurahim Hayotov va Shirin Murodov, gilkorlar-Xo'jaqul, Hojiqurban, yog'och o'ymakorlari Qori Chubin, Abdug'ofur, naqqosh Hasanjon ishtirok etdilar. Ayvon va Oq zal 1912-1914- yillarda qurildi, hovuz yonidagi bino esa 1917-1918-yillarda bunyod qilindi. Amir Olimxon saroy qurilishida ishtirok etgan ustalarning mehnatini yuksak qadrlab, ularga sovg'a-salomlar bergen.

Amir Olimxon hukmronligining so'nggi yillarida yozgi saroyida muqim yashab, davlat ishlari boshqaruviga deyarli aralashmay qo'yib, Ark qo'rg'oniga kamdan kam boradigan bo'lib qoldi. Natijada mamlakat mudofaasi sustlashib, Buxoroyi Sharif bolsheviklar tomonidan bosib olinadi.

Shunday qilib, XX asrning 50-yillarida bebaho madaniy merosimiz mafkuralashtirilib, Sitorayi Moxi Xossa saroyi va uning atrofidagi chorbog'larga tiklab bo'lmas zarar yetkazilgan.

⁴ Жумаев К. Ситорай Моки Хосса. –Бухоро: Бухоро, 2010. –Б.48.

Ko'plab noyob ashyolar talon-taroj qilinib, noyob daraxtlar, o'simliklar va hayvonlar yo'q qilib tashlanadi. Mustaqillik bularning bariga chek qo'ydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik sharofati bilan Sitorayi Moxi Xossa saroyi ta`mirlandi. 1991-yildagi Buxoro viloyati hokimi Damir Yodgorovning qarori bilan saroyning bog'i va sanatoriya ixtiyorida bo'lgan bir qism binolari qaytarib berildi. Buxoro-ko'p asrlik madaniyatga ega shahar bo'lib, o'zining ahamiyatini hozirgi kungacha saqlab kelmoqda. Uning betakror me'morchilik obidalari va ansamblari chiroyiga to'yish, o'z hunarining asriy an'analarini avaylab saqlab kelayotgan amaliy san'at sohiblarining ijodiga tasannolar aytish, shunchaki tarix nafasidan bahramand bo'lish uchun har yili jahoning turli nuqtasidan sayyoohlar oqimi oshib bormoqda.

Tarix zarvaraqlaridan joy olgan shu va shu kabi muhtasham inshootlar tarixini o'rganish, har birimizda Vatanimizga bo'lган jo'shqin mehrni yanada oshishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Жумаев Қ. Ситорай Моҳи Хоса. –Тошкент: Фан, 2005. - Б.24.
2. Н. Наимов. Бухорои Шариф.-Бухоро: Бухоро, 2005.-Б.45.
3. Жумаев Қ. Ситорай Моҳи Хосса халқ амалий санъати музейи //Мозийдан садо. – Тошкент: 2003.- №1. –Б.26.
5. Раҳмон Муиний. Бухоронинг меъморий ёдгорликлари.-Бухоро.2006.
6. Жумаева Н. Ситорай Моҳи Хосса бўйлаб. – Бухоро: 2018. -Б.88.
7. Қ.Ражабов, С.Иноятов. Бухоро тарихи. Тошкент: Tafakkur,2016.-Б.187
8. F.Bobojonova. Buxoro me'moriy obidalari tarixi. Buxoro. Fan va ta'lif, 2022y.